O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
TOSHKENT SHAHAR
BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-45, E-mail: dav_ekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Pulatov Mirkobil Miradilovich

Sana: 13-05-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

206086 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, “Shofayz” MFYdagi 187-son maktabgacha ta’lim tashkilotini rekonstruksiya qilish.	
Buyurtmachi:	TOSHKENT SHAHAR HOKIMIYATI YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYASI DUK
Bosh loyihachi:	"SILVER RAIN PROJECT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Davlat byudjed mablag'lari
Bosh pudratchi:	Tanlov asosida aniqlanadi.
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	014872

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.12.2023-yildagi PQ-404-sonli qarori.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-sentabrdagi 83-sonli rayosat bayoni.

1.3. Toshkent shahar Xalq deputatlari kengashining 2023-yil 8-iyundagi VI-84-130-14-0-K/27-sonli qarori.

1.4. Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasining 28.09.2023-yildagi 1726-1726277-93452-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig`i (joylashtirish uchun).

1.5. Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasining loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo`yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 09.04.2024-yildagi 118666683-sonli xulosasi.

1.6. Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filialining 20.12.2023-yildagi 01-01/04-2613-sonli Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

1.7. 29.03.2024-yilda Toshkent shahar hokaimligi tomonidan tasdiqlangan va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi bilan kelishilgan optimallashtirish uchun loyihalash topshirig‘i.

1.8. “Hududgaz Poytaxt” GTFning 01.111.2023-yildagi 040280-sonli tabiiy gaz bilan gazlashtirish loyihasini ishlab chiqish va gazlashtirishga Texnik shart.

1.9. “Toshkent shahar suv ta’minoti” MChJning 25.10.2023-yildagi 270/4-3577-sonli Texnik shart.

1.10. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Davlat va shartnomaviy xizmatlarni rivojlantirish” filianing 02.11.2023-yildagi 05-1637-sonli Texnik sharti.

1.1. “O‘ZGASHKLITI” Toshkent shahar va viloyat filiali tomonidan 2023-yilda berilgan Qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risida xulosasi.

1.11. “Ilmiy birlashma” fazoviy konstrusiyalar, binova inshoatlar zilzilabardoshligi ilmiy ishlab chiqarish labarotoriyasi tomonidan 30.10.2023-yilda berilgan binolar joriy holati bo‘yicha yuk ko’taruvchi qurilish kostrksiyalarini texnik instrumental va laboratoriya tadqiqotlar xulosasi.

1.12. Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasi “Toshkent shahar yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri” Davlat korxonasining 04.08.2014-yildagi ko‘chmas mulk obyektiga kadastr ishi.

1.13. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 14.02.2024-yildagi 16-06/1605-sonli topshirig‘i.

1.14. “Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi qilish Respublika markazi” DM Toshkent shahar boshqarmasining 14.04.2024-yildagi 203645-sonli Yig‘ma ekspertiza xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra «Ishchi loyiha» bo‘yicha taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari:

- loyiha tushuntirish xati;
- bosh reja, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarining loyiha chizmalari;
- arxitektura va qurilish loyihaviy yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- temirbeton konstruktsiyasi loyihaviy yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- elektr ta’minoti va elektr yoritish tizimining loyiha yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- tashqi elektr tarmoqlari tizimining loyiha yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- videokuzatuv tizimi loyihasi bo‘yicha chizmalar;
- yong‘in signalizatsiyasi tizimi loyihasi bo‘yicha chizmalar;
- suv va oqova suv tarmoqlarining loyihaviy yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- tashqi suv va tashqi oqova suv tarmoqlarining loyihaviy yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- havoni almashtirish, shamollatish tizimlari va isitish tizimining loyiha yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- gaz ta’minoti bo‘yicha chizmalar (“Modern Build Project” MChJ 26.09.2019-yildagi №AL-000237 sonli litsenziya).
- qurilish xarajatlarining umumiy smeta hisob-kitoblari.
- obyektning energiyasamarodorlik pasporti.
- issiqlik hisob-kitobi.
- obyektning qurilishini tashkil etish loyihasi (POS).

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonining o‘ziga xos xususiyatlari

- Qurilish va iqlim zonasi-IV.
- Me’yoriy qor yuki- 50 kg/m2
- Me’yoriy shamol yuk- 38 kg/m2
- Yer osti suvlari yer yuzasidan-10,0 metr chuqurlikda joylashgan.
- Cho'kish bo'yicha tuproq sharoitining turi-II

- Hududning zilzilabardoshlik koʻrsatkichi-8 ball.

3.2. Bosh reja arxitektura yechimlar.

Loyihalashtirilayotgan 187-son maktabgacha taʼlim tashkilotini rekonstruksiya qilish ishlari Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, “Shofayzi” MFY, Uygʻur koʻchasi, 448-uy manzilida joylashgan.

Obyekt hududida mavjud MTT binosi, loyihalashtirilayotgan MTT binosi, soyabonlar, guruh maydonchalari, hovus (bassen), qozonxona, nazorat oʻtkazish punkti, chiqindilar saqlash joyi, chegara devorlari hamda darvozalar, avtoturargoh hamba boshqa inshootlar mavjud.

Hududning texnik-iqtisodiy koʻrsatkichlari.

Hududning umumiy maydoni - 3887,0 m2.
Hududning umumiy qurilish maydoni - 1 356,7 m2.
Qoplamsalar maydoni - 1308,2 m2.
Obodonlashtirish maydoni - 1019,6 m2.
Boshqalar - 202,4 m2.

3.3. Mavjud MTT binosi (Blok A)-ikki qavatli, qismin yertoʻlali, toʻgʻri toʻrtburchak shaklida boʻlib, umumiy oʻqlar boʻyicha oʻlchamlari 32,1x10,9 metrni tashkil qiladi. Yertoʻla qavatining poldan shiftgacha balandligi 1,75 metr, birinchi qavatniki 3,6 metr, ikkinchi qavatniki 3,5 metrni tashkil qiladi.

Binoning yertoʻla qavatida texnik xonalar rejalashtirilgan.

Binoning birinchi va ikkinchi qavatlarida guruh xonalari, xoll, yoʻlak, zinapoya va boshqa xonalar rejalashtirilgan.

Binoning texnik-iqtisodiy koʻrsatkichlari.

Binoning umumiy qurilish maydoni - 380,22 m2.
Binoning umumiy ichki maydoni - 675,21 m2.
Binoning umumiy hajmi - 3383,9 m3.

3.4. Loyihalashtirilayotgan MTT binosi (Blok B)- ikki qavatli, yertoʻlasiz, toʻgʻri toʻrtburchak shaklida boʻlib, umumiy oʻqlar boʻyicha oʻlchamlari 24,0x14,4 metrni tashkil qiladi. Bino qavatlarining poldan shiftgacha balandligi 3,0 metrni tashkil qiladi.

Binoning birinchi qavatida yoʻlak, xoll, guruh xonasi, omborxonalar, oshxona, elektr qutisi xonasi, tibbiyot xonasi qaboʻlxona va boshqa xonalar rejalashtirilgan.

Binoning ikkinchi qavatida zinapoya, yoʻlak, xoll, guruh xonalari, mudira xonasi, xoʻjalik mudiri xonasi, logoped xonasi, tibbiyot xonasi, inventarlar xonasi, universal zal va boshqa xonalar rejalashtirilgan.

Binoning texnik-iqtisodiy koʻrsatkichlari.

Binoning umumiy qurilish maydoni - 376,65 m2.
Binoning umumiy ichki maydoni - 403,4 m2.
Binoning umumiy hajmi - 3019,5 m3.

3.5. Konstruktiv yechimlar.

Loyihalashtirilayotgan MTT binosi.

Poydevorlar- lentasimon quyma temirbetondan.

Loyihada gidroizolyatsiya qilinishi ko`zda tutilgan.

Devorlar-380 mm qalinlikdagi gʻishtdan.

Oraliq devorlar-120 mm qalinlikdagi gazobetondan.

Ustunlar-B25 sinfli, 400x400 mm oʻlchamdagi quyma temirbetondan.

Toʻsinlar- B25 sinfli, 400x400 mm oʻlchamdagi quyma temirbetondan.

Orayopmalar-tayyor quyma temirbeton plitadan.

Zinapoyalar-quyma temirbetondan.

Tom qismi yog`och konstruksiyali bo`lib, profnastildan qoplanishi ko`zda tutilgan.

3.6. Yong‘inga qarshi texnik yechimlar.

Binoning yong‘inga chidamlilik darajasi - II tipga mansub.

Konstruktiv yong‘in xavf sinfi - F1.1.

Binoning konstruktiv yong`in xavf sinfi – C0.

Favqulotda chiqish eshiklari-yo`laklardan hamda zinapoyalardan.

Devorlar va shiftlar yonmaydigan materiallar bilan bezatilgan.

3.7. Energiya samaradorlik.

Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- binoning tashqi devorlari qalinligi 50 mm bo‘lgan issiqlik ushlovchi bazalt qoplamasi bilan qoplangan;
- devorlar, qoplamalar tom qismi va pollarda issiqlik izolyatsiyasi qo‘llangan;
- yoritish svetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan;
- binoda qisqa vaqtda yonib-o‘chadigan qurilmalar (harakatni va yorug‘likni sezuvchi) yoritgichlardan foydalanilgan;
- kirish yo’laklarida eshiklarni o’zi yopuvchi mexanizmlar (dovochik) va berk yo’pilishi ta’minlangan.
- obyektda jami 30 dona 16,05 kVtlik quyosh panellari va 3 dona 200 litrlik quyosh kollektorlari o‘rnatilishi rejalashtirilgan.

3.8. Xarajatlar smeta hisob-kitob hujjatlari.

Binoning yakuniy smeta xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori hamda ShNQ 4.01.16-09 me’yorlariga asosan ishlab chiqilgan.

Loyiha tashkiloti tomonidan hisoblab aniqlangan binoning ekspertiza ko‘rigiga qadar dastlabki narxi buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 12% QQS bilan hisoblanganda – 5 917 685,695 ming so‘mni tashkil qiladi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Loyihalanayotgan binolarning kelishilgan va tasdiqlangan loyihalash topshirig‘iga hamda tegishli manfaatdor tashkilotlar tomonidan taqdim qilingan texnik shartlarga asosan, elektr ta’minoti va elektr yoritish, tashqi elektr tarmoqlari, yong‘in signalizatsiyasi, videokuzatuv tizimi, yong‘in xavfsizligi tizimi, suv va oqova suv tarmoqlari, tashqi suv tashqi oqova suv tarmoqlari, havoni almashtirish, shamollatish tizimlari, gaz ta’minoti hamda isitish tizimining loyihada ko‘zda tutilgan.

Gaz quvuriga ulanish joyi harakatdagi yer usti, D=76 mm o‘rtabosimli gaz tarmog‘i, ulanish nuqtasiga bo‘lgan masofa 30 metr.

Soatlik gaz iste’moli sarfi: 35 nm3/soat. Yillik iste’moli sarfi: 1,23 nm3/yil.

Gaz jihozlar: MTU-300 modul qozonxonasi-1dona.

Suv ta’minoti sxema bo‘yicha Xushruy ko‘chasidagi D-100 mmli tarmoqqa ulanadi.

Oqova suv tarmog‘i mavjud sxemadagi D-200 mmli shahar oqova suv kollektorining mavjud qudug‘iga ulanadi.

Sutkasiga suv sarfi 41,04 m3.

Elektr ta’minoti "Kukcha-1,2" Nim stantsiyasiyasida mavjud 4645 TPga ulanish orqali amalga oshiriladi.

Ulanadigan kuchlanishi 380V kV.

Ruxsat etilgan umumiy quvvat 105 kVt.

Elektr ta’minoti toifasi II.

4.2. Eslatma: Buyurtmachi tashkiloti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256–sonli qarori talablariga rioya qilinsin. Obyekt bo‘yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish va ulardan foydalanish bo‘yicha tegishli manfaatdor xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasining loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo`yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 09.04.2024-yildagi 118666683-sonli xulosasi. Eskiz loyihada bosh reja, binoning fasad ko‘rinishi hamda xonalarning joylashuvi 05.04.2024-yildagi 03-20/1-TSHX-sonli bayoni bilan kelishilgan.

5.2. Loyiha hujjatlarida o‘zgarishlar amalga oshirilgan taqdirda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.04.2022-yildagi 200-sonli qarori talablariga rioya qilinsin va ushbu qarorga asosan Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi “Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining” Xulosasi qayta olinib, loyiha-smeta hujjatlari qayta ishlab chiqilib, o’rnatilgan tartibda qayta ekspertiza olinsin.

5.3. Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filialining 20.12.2023-yildagi 01-01/04-2613-sonli Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

5.4. Optimallashtirish loyiha hujjatlari O’zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal ho’jaligi vazirining o‘rinbosari D.K.Adilov tomonidan kelishilgan.

5.5. Toshkent shahar qurilish sohasiga oid davlat dasturlari ijro etilishini nazorat qilish va muofiqlashtirish bo‘yicha shahar ishchi guruh shtabi bilan kelishish lozim.

5.6. “Infratuzilmani rivojlantirish injiniring kompaniyasi” DM Toshkent shahar hududiy boshqarmasi tomonidan kelishilgan

5.7. Loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo‘shimcha taklif va e’tirozlari mavjud emas.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra **5 917 685 695** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **107 906 083** so'mga kamaytirilib, **5 809 779 612** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **4 582 468 999** so'm

Asbob-uskunalar: **604 834 226** so'm

QQS: **622 476 387** so'm

6.1. Ekspertizaga taqdim etilgan ishchi loyihasi va smeta xarajatlari ko‘rib chiqildi.

6.2. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa hamda ekspertiza xulosasidagi talablar bajarilmasa ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.3. Eskpertiza natijalariga ko’ra qo’shilgan qiymat solig’i (QQS) bilan va buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 5 917 685,695 ming so’m miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati 107 906,083 ming so’mga iqtisod qilinib, obyektning tavsiyaviy boshlang’ich qiymati qo’shilgan qiymat solig’i (QQS) bilan va buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 5 809 779,612 ming so’mni tashkil etdi, shu jumaladan:

- obyektning 12% QQSsiz, buyurtmachi xarajatlarisiz joriy narxlardagi qiymati – 5 187 303,225 ming so'm;

12% QQS – 622 476,387 ming so'm;
- obyektning pudrat tashkiloti tomonidan bajariladigan qurilish-montaj ishlari qiymati 12% QQS bilan (obyektning tavsiyaviy boshlang‘ich qiymati): 2 500 688,657 ming so’m,
-12% QQSsiz – 2 232 757,729 mingso'm;
-buyurtmachi tomonidan markazlashgan tartibda yetkazib beriladigan qurilish materiallar qiymati (yetkazib berish transport harajatlari bilan) 12% QQS bilan: 3 309 090,955 ming.sum
-12% QQSsiz – 2 954 545,496 mingso'm;
6.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.11.2023-yildagi PF-199-sonli farmoniga amal qilinsin.
6.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-dekabrdagi PQ-4545-sonli qarorining bandlari bajarilsin.
6.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 26-dekabrdagi «Elektr tarmog‘i xo`jaligi obyektlarini muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 1050-son hamda 1998 yil 15-maydagi 210-sonli qaroriga asosan, telekommunikatsiya liniyalari va inshootlarini qo‘riqlash qoidalariga amal qilinsin.
6.7. Shartnoma bo‘yicha import texnologik uskunalarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va u bilan bog‘liq xarajatlar shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan o‘tkazilmadi.
6.8. Buyurtmachi obyekt bo‘yicha o‘rnatiladigan import uskunalarni sotib olishida 2021-yil 22-apreldagi O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi 684-sonli Qonun talablariga rioya etilsin.
6.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energitika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4779-sonli qarori va QMQ 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi” talablariga to‘liq rioya qilishsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.
6.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2022-yildagi PF-220-sonli farmonining tegishli bandlarida ko'rsatilgan talablarga to'liq rioya qilinsin.
Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong‘in xavfsizligiga rioya qilinsin.
6.11. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 255-sonli qarori talablariqa rioya etilsin.
6.12. Ishchi loyihaning asosiy qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-sonli qarorida belgilangan tartibga ko‘ra “Nazorat o‘lchovi” natijalari bo‘yicha aniqlanadi.
6.13. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son va 2022-yil 20-apreldagi 200-sonli qarorlari talablariga qat`iy rioya qilingan holda buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.
6.14. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qaror Nizomining III-bob, 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.
6.15. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-sonli qaroriga asosan Buyurtmachi qurilishi markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan obyektlar boshlang‘ich qiymati Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy

saytiga (stat.uz) qo‘yib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizmlar xizmati uchun o‘rtacha narxlar hamda o‘rtacha ish haqidan foydalangan holda shakllantiradi. Bundan tashqari, Buyurtmachi pudrat ishlari va qurilish materiallari bozorida marketing tadqiqotlarini o‘tkazish, resurslarning davriy o‘rtacha narxlarini tasdiqlash huquqiga egaligi belgilangan. Ushbu qarorning 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

6.16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.07.2022-yildagi yildagi PQ-332-sonli Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, obyektning cheklangan qiymati buyurtmachi tomonidan "Loyihalarni va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKning ijobiy xulosasini hisobga olgan holda aniqlanadi. Ushbu qaror 2-ilovasining 1-bob, 4-bandiga asosan- "Binolar, inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalarini kapital qurish va ta’mirlash bo‘yicha tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridini amalga oshirish uchun xarid qilish hujjatlari Markazga texnik topshiriq shaklida loyiha-smeta hujjatlari bilan birgalikda kiritiladi va ulardagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlari va narx parametrlarining asosliligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkaziladi.

7. Xulosalar.

“Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, “Shofayz” MFYdagi 187-son maktabgacha ta’lim tashkilotini rekonstruksiya qilish” *(Optimizatsiya)* ishchi loyihasi kelgusida ko’rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

7.2. Ushbu yig’ma ekspert xulosasi tasdiqlangan kundan boshlab 14.04.2024-yildagi 203645-sonli yig‘ma ekspert xulosasi bekor qilingan va o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanadi.

Bosh ekspert: Mardonov Shohruh Isroil O‘g‘li.

Ishtirokchi ekspertlar: Mardonov Shohruh Isroil O‘g‘li